IOT VA AI INTEGRATSIYASI ORQALI SUVNI TEJASH .....	475
<b>Raxmatullayeva Nozima Shodiqulovna</b>	

# ASALARICHILIK XO'JALIKLARIDA BIZNES JARAYONLARI HISOBINING NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARI

**Ishturdiyev Hasan Abdigapparovich**

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,  
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti  
«Buxgalteriya hisobi va audit» kafedrasida assistenti

**Annotatsiya:** Asalarichilik xo'jaliklari qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishning asosi bo'lishi kerak. Chunki iqtisodiy erkin fuqaro, haqiqiy mulkdor nafaqat o'z mulkini samarali tasarruf etishdan manfaatdor boyligini oshirish bilan birga butun mamlakatni boyitishga ham qodir. Mamlakatimizda xorijiy davlatlar tajribasini chuqur o'rgangan holda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish borasida juda muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda qishloq xo'jaligini rivojlantirish, qishloqda bozor munosabatlarini joriy etish va xususiy mulkchilik shaklini rivojlantirish, huquqiy, tashkiliy va moliyaviy munosabatlarni yaratish amalga oshirilmoqda.

**Kalit so'zlar:** qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi, asalarichilik xo'jaliklari, xususiy mulk, bozor munosabatlari.

**Abstract:** Beekeeping should be the basis for organizing agricultural production. Because an economically free citizen, a real owner, is interested not only in the effective disposal of his property, but also in increasing his wealth, and is able to enrich the entire country. In our country, having thoroughly studied the experience of foreign countries, very important measures are being taken to implement economic reforms, develop agriculture, introduce market relations in the countryside and develop the form of private ownership, create legal, organizational and financial relations.


**Key words:** agricultural production, beekeeping, private property, market relations.

**Аннотация:** Пчеловодство должно быть основой организации сельскохозяйственного производства. Потому что экономически свободный гражданин, настоящий собственник, заинтересован не только в эффективном распоряжении своим имуществом, но и в увеличении своего богатства, способен обогатить всю страну. В нашей стране, досконально изучив опыт зарубежных стран, принимаются очень важные меры по осуществлению экономических реформ, развитию сельского хозяйства, внедрению рыночных отношений на селе и развитию формы частной собственности, созданию правовых, организационных и финансовых отношений.

**Ключевые слова:** сельскохозяйственное производство, пчеловодство, частная собственность, рыночные отношения.

## KIRISH

Bugungi kunda asalarichilik xo'jaliklari qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining yetakchi bo'g'iniga, uni tashkil etishning asosiy shakliga aylanmoqda. Xususan, birgina respublikamizda mavjud asalarichilik subyektlari soni o'zgarishiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2018–2022-yillar oralig'ida 21 foizga o'sganligini kuzatishimiz mumkin. Asalarichilik subyektlari soni 2018-yilda respublika bo'yicha jami 14 018 tani tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilda 15 794 tani va 2022-yilga kelib 16 974 tani tashkil etgan (1-rasm).



1-rasm. Respublikamizda faoliyat yuritayotgan asalarichilik xo'jaliklari soni o'zgarishi.



Asalarichilik xo'jaliklari sonining ortib borishi mos ravishda asal yetishtirish miqdorining ham ortib borishiga o'zining ijobiy hissasini qo'shmoqda. Keyingi yillarda qabul qilingan qonun va me'yoriy-huquqiy hujjatlar asalarichilik xo'jaliklarining vakolatlarini sezilarli darajada kengaytirdi. Asalarichilik xo'jaliklarining tarixiy ildizlarga ega bo'lgan xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish asosida mamlakatimizda "O'zbekiston asalarichilari" uyushmasi, viloyat va tumanlarda esa viloyat va tuman bo'linmalari shakllantirildi. Eng muhimi, asalarichilik xo'jaliklarining huquq va vakolatlari belgilandi va bu tuzilmalar jiddiy ravishda kengaytirildi.

Bugungi kunda asalarichilik xo'jaliklarini tashkil etish va qayta tashkil etish, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari tomonidan asalarichilik xo'jaliklarini rivojlantirish va ularning faoliyatiga doir normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini qabul qilish bilan bog'liq deyarli har qanday masala hal etilishi mumkin. Asalarichilik xo'jaliklarining huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish – xoh davlat va xo'jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan o'zaro munosabatlar, xoh kadrlar tayyorlash, ta'minot va xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar bilan hamkorlik qilish, shuningdek, ishlarni sudlarda ko'rib chiqishdan iborat.

Bir so'z bilan aytganda, "O'zbekiston asalarichilari" uyushmasi asalarichilik xo'jaliklarining o'zagi, yetakchi kuchi bo'lishi, uni qishloq obodonchiligi, shu orqali qishloq aholisi farovonligini yuksaltirish mas'uliyatini o'z zimmasiga olishga qodir kuchli ijtimoiy-siyosiy kuchga aylantirishi zarur.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI


Mahalliy olimlarimizdan R.D. Dusmuratov biznes jarayonlarning me'yoriy va huquqiy asoslari to'g'risida ish olib borib, «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonunning 10-moddasi haqida ushbu moddaga quyidagi mazmunda qo'shimcha kiritilsa, milliy iqtisodiyot tarmoqlari miqyosida buxgalteriya hisobini tashkil etish, yuritish va hisobot tuzishning me'yoriy-uslubiy ta'minoti yanada mukammallashgan bo'lar edi, deb ta'kidlaydi:

«Tarmoq vazirlik va idoralari tomonidan ushbu qonun va buxgalteriya hisobi standartlari qoidalariga zid bo'lmagan, muayyan tarmoqning xususiyatlari hisobga olingan me'yoriy hujjatlar, uslubiy ko'rsatmalar va tavsiyanomalar ishlab chiqiladi.» Shuningdek, 12-moddasi haqida esa ushbu moddaning 3-, 4-, 5-, 6-, 7-xatboshilarini qisqartirib, ularning o'rniga:

«Buxgalteriya hisobi xizmati va uning faoliyatini tashkil etish buxgalteriya hisobi milliy standarti bilan tartibga solinadi.» mazmunidagi xatboshini kiritish zarurligini bildiradi.

Ushbu moddaning uslubiy ta'minotini rivojlantirish uchun «Buxgalteriya hisobi xizmati va uning faoliyatini tashkil etish» nomli BHMS ishlab chiqish lozim. Unda «buxgalteriya hisobi xizmati», «buxgalteriya hisobi xizmatining rahbari» va boshqa tayanch tushunchalarning ta'riflari, buxgalteriya hisobi xizmatining namunaviy tarkibi va tuzilmasi, faoliyat mezonlari hamda ilovasida «Buxgalteriya hisobi xizmati xodimlari namunaviy xizmat vazifalari»ni keltirish maqsadga muvofiqdir

Asosiy qism: O'zbekistonda buxgalteriya hisobini me'yoriy tartibga solish tizimi va uning asosiy elementlarini to'rt pog'onaga bo'lish mumkin.



2-rasm Buxgalteriya hisobini me'yoriy- huquqiy tartibga solish tizimi.



Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 30-avgustida qabul qilingan «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi 279-l-sonli Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilib, yangi tahriri 2016-yil 13-aprelda tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasida "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonun buxgalteriya hisobini tashkil qilish uchun asosiy huquqiy baza bo'lib xizmat qiladi. Qonunda buxgalteriya xizmati mutaxassislarini, shuningdek, korxonalar rahbarlarining buxgalteriya hisobini tashkil etishdagi asosiy vazifalari, maqsadlari, huquqlari va burchlari ko'rsatib berilgan.

Shunday qilib, buxgalteriya hisobining me'yoriy-huquqiy ta'minotini takomillashtirish zaruriyati milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, korporativ boshqaruvning rivojlanishi hamda moliyaviy hisobot xalqaro standartlarining joriy qilinishi bilan bog'liq.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolani shakllantirish jarayonida kuzatish va tanlab olish, ilmiy-nazariy hamda empirik kuzatuv usullaridan foydalanilgan. Tadqiqot natijalarining ishonchligi – tadqiqotda qo'llanilgan xorijiy va milliy statistik rasmiy manbalardan foydalanilgani bilan izohlanadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

"Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Nizom, O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi milliy standartlari, buxgalteriya hisobini yuritish va buxgalteriya hisobotlarini tuzish chog'ida foydalaniladigan uslubiy ko'rsatmalar va boshqa me'yoriy hujjatlar ishlab chiqildi va bosqichma-bosqich tatbiq etildi.

Natijada buxgalteriya hisobini tashkil etishning quyidagi huquqiy me'yorlari yaratildi:

- Moliyaviy hisobot shakllarini to'ldirish bo'yicha qoidalar;
  - O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risidagi qonun;
  - Rasmiy davlat hujjatlarini tayyorlashga buyurtma berish, ularni tayyorlash, hisobga olish, saqlash va topshirish tartibi to'g'risidagi nizom;
  - Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining qonuni;
  - Muhrlar va shtamlarni tayyorlash, saqlash va ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizom;
  - Buxgalteriya hisobida hujjatlar va hujjatlar aylanuvi to'g'risidagi nizom;
  - O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblarni to'g'risidagi nizom;
  - 1-yanvar holatiga ko'ra asosiy fondlarni har yili qayta baholashni o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom;
  - Inventarizatsiya jarayonida aniqlangan mol-mulk kamomadi va ortiqchasi buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish tartibi to'g'risidagi nizom;
  - Asosiy vositalarni balansdan chiqarish tartibi to'g'risidagi nizom;
  - Nomoddiy aktivlarni balansdan chiqarish tartibi to'g'risidagi nizom;
  - Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining qonuni;
  - Yuridik shaxslar tomonidan kassa operatsiyalarini amalga oshirish qoidalarini tasdiqlash to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining qarori;
  - Tarmoq vazirliklarining buxgalteriya hisobini tashkil qilish bo'yicha yo'riq xatlari, tarmoq xususiyatlarini inobatga olib ishlab chiqilgan nizomlari va boshqa me'yoriy kuchga ega bo'lgan ko'rsatmalari.
- Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida Kontseptual asos va 22 ta BHMS amalda mavjud. Bular:
- Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun kontseptual asos
  - 1-sonli BHMS – Moliyaviy hisobot va hisob siyosati
  - 2-sonli BHMS – Asosiy xo'jalik faoliyatidan tushgan daromadlar
  - 3-sonli BHMS – Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot
  - 4-sonli BHMS – Tovar-moddiy zaxiralar
  - 5-sonli BHMS – Asosiy vositalar
  - 6-sonli BHMS – Ijara hisobi
  - 7-sonli BHMS – Nomoddiy aktivlar
  - 8-sonli BHMS – Konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotlar va sho'ba xo'jalik jamiyatlariga investitsiyalar
  - 9-sonli BHMS – Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot
  - 10-sonli BHMS – Davlat subsidiyalari hisobi va davlat yordami bo'yicha ochib berishlar
  - 11-sonli BHMS – Ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga xarajatlar
  - 12-sonli BHMS – Moliyaviy investitsiyalar hisobi
  - 14-sonli BHMS – Xususiy kapital to'g'risida hisobot



- 15-sonli BHMS – Buxgalteriya balansi
- 16-sonli BHMS – Buxgalteriya balansi tuzilgan sanadan keyingi xo'jalik faoliyatining nazarda tutilmagan holatlari va yuz beradigan hodisalari
- 17-sonli BHMS – Kapital qurilishga oid pudrat shartnomalari
- 19-sonli BHMS – Inventarizatsiyani tashkil etish va o'tkazish
- 20-sonli BHMS – Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan buxgalteriya hisobini yuritishning soddalashtirilgan tartibi
- 21-sonli BHMS – Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schyotlari rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma
- 22-sonli BHMS – Chet el valyutasida ifodalangan aktivlar va majburiyatlarning hisobi
- 23-sonli BHMS – Qayta tashkil etishni amalga oshirishda moliyaviy hisobotni shakllantirish
- 24-sonli BHMS – Qarzlarni bo'yicha xarajatlar hisobi

Me'yoriy-huquqiy hujjatlarga kiritilgan o'zgarishlarni hisobga olib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-sonli "Mahsulotlarni (ishlarni, xizmatlarni) ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Nizom tasdiqlangan. Ushbu Nizom talablari moliyaviy natijalarni aniqlashda xalqaro tamoyillarga mos keladi va unga o'zgartirish hamda qo'shimchalar kiritish imkonini beradi.

Asalarichilik xo'jaliklari o'z xo'jalik faoliyati ehtiyojlaridan kelib chiqib, mustaqil ravishda hisob siyosatini tuzadilar. Buxgalteriya hisobi asalarichilik xo'jaliklari tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan yagona uslubiy tamoyillar va qoidalarga muvofiq amalga oshiriladi. Bunda xo'jalik quyidagi talablarga rioya qilgan holda foydalanilayotgan buxgalteriya registrlarini mustaqil ravishda o'z faoliyati xususiyatlariga moslashtirishi mumkin:

- a) yagona uslubiy asos (ikki tomonlama yozuv tamoyili);
- b) analitik va sintetik hisob ma'lumotlarining korrelyatsiyasi;
- v) barcha xo'jalik muomalalarini dastlabki hujjatlar asosida hisob registrlarida har tomonlama aks ettirish;
- g) xo'jalik yuritish, xo'jalik faoliyatini nazorat qilish va tahlil qilish uchun zarur bo'lgan ko'rsatkichlar bo'yicha dastlabki hujjatlar ma'lumotlarini umumlashtirish va tizimlashtirish, shuningdek, moliyaviy hisobotlarni tayyorlash.

Asalarichilik xo'jaliklarida xo'jalik operatsiyalarini hisobga olish uchun asos bo'lib, operatsiyalarning amalda bajarilishini qayd etuvchi va ularni amalga oshirish bo'yicha buyruqlar beruvchi dastlabki hisob hujjatlari xizmat qiladi.

Asalarichilik xo'jaliklarida dastlabki buxgalteriya hujjatlari xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirish vaqtida yoki amalga oshirilgandan so'ng darhol (kechiktirmasdan) tuziladi.

Ular quyidagilarga muvofiq tuziladi:

O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonunining 9-moddasi

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2003-yil 23-dekabrda 131-son buyrug'i asosida tasdiqlangan "Buxgalteriya hisobidagi hujjatlar va hujjatlarning aylanishi to'g'risidagi nizom" (2004-yil 14-yanvar, ro'yxat raqami 1297; "Huquqiy hujjatlar to'plami", 2004-yil, 1–2-son, 24-modda)

Dastlabki hujjatlar qonun hujjatlarida belgilangan namunaviy shakllarda yoki fermer xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan shakllarda tuziladi.

Ular tekshirilishi kerak. Tekshirish quyidagilar asosida amalga oshiriladi:

- rasmiylashtirish to'liqligi va to'g'riligi;
- rekvizitlarning to'ldirilganligi;
- mazmunan qonuniylik;
- ko'rsatkichlarning mantiqiy bog'liqligi.

Buxgalteriya hisobini soddalashtirilgan shaklda tashkil etish uchun xo'jalik operatsiyalari bo'yicha buxgalteriya hisob schyotlarining ishchi rejasi tuziladi. Bu rejalar asosiy schyotlar bo'yicha mablag'lar va ularning manbalari hisobini yuritish imkonini beradi hamda xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati ustidan nazoratni ta'minlaydi. Bu mulkning mavjudligi va saqlanishi, majburiyatlarning bajarilishi hamda buxgalteriya ma'lumotlarining ishonchligini ko'rsatadi.

Asalarichilik sohasini samarali tashkil etishda davlat tomonidan doimiy ravishda e'tibor qaratilib, mahsulot yetishtiruvchilar tashkiliy va iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlab kelinmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-oktabrdagi "Respublikamizda asalarichilik tarmog'ini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3327-son qarori qabul qilingan. Ushbu qaror bilan quyidagilar belgilangan:

- tarmoq boshqaruv tizimini takomillashtirish;
- naslchilik ishlarini ilmiy asosda tashkil etish;
- faoliyat samaradorligini oshirish;



asal mahsulotlari hajmi va turlarini ko'paytirish;  
qayta ishlash texnologiyalarini joriy qilish;  
eksport salohiyatini kengaytirish;  
ilg'or tajribalarni ommalashtirish .

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasiga quyidagi vazifalar yuklatilgan:

ekinlar hosildorligini oshirish uchun changlatish xizmatini tashkil etish;  
shartnomalar reyestrini yuritish;  
mutaxassislar tayyorlash;  
changlatish agrotexnikasini takomillashtirish va tavsiyalar ishlab chiqish.

1-jadval. 2023-yilda paxta-to'qimachilik klasterlari tomonidan g'ozani asalari bilan changlatish agrotexnikasi qo'llaniladigan maydonlarning.

PROGNOZ KO'RSATKICHLARI

T/r	Hududlar nomi	Paxta-to'qimachilik klasterlari soni	Jami paxta maydoni, gektar	G'ozani asalari bilan changlatish agrotexnikasi qo'llaniladigan maydon, gektar	Dalaga qo'yiladigan asalari oilasi soni, dona
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	11	86 800	13 000	26 000
2.	Andijon viloyati	15	74 996	14 000	28 000
3.	Buxoro viloyati	11	96 220	16 000	32 000
4.	Jizzax viloyati	6	82 100	12 500	25 000
5.	Qashqadaryo viloyati	18	137 500	19 500	39 000
6.	Navoiy viloyati	4	28 155	10 000	20 000
7.	Namangan viloyati	7	61 025	14 000	28 000
8.	Samarqand viloyati	11	73 246	18 000	36 000
9.	Surxondaryo viloyati	11	72 270	20 000	40 000
10.	Sirdaryo viloyati	9	77 500	10 000	20 000
11.	Toshkent viloyati	6	70 161	19 000	38 000
12.	Farg'ona viloyati	13	77 821	15 000	30 000
13.	Xorazm viloyati	12	82 757	19 000	38 000
<b>Jami:</b>		134	1 020 551	200 000	400 000

2-jadval. 2023 – 2024-yillarda asalari oilalari sonini ko'paytirish va asal yetishtirishning.

PROGNOZ KO'RSATKICHLARI<sup>1</sup>

T/r	Hududlar nomi	Asalari oilalari soni, dona		Farqi, +-	O'sish, foiz	Etishtiriladigan asal miqdori, tonna		Farqi, +-	O'sish, foiz
		2023-yil	2024-yil			2023-yil	2024-yil		
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	40 188	48 800	8 612	121,4	1 470	1 643	173	111,8
2.	Andijon viloyati	103 053	128 200	25 147	124,4	1 896	2 019	123	106,5

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha 2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan dasturni tasdiqlash to'g'risida"2022-yil 8-fevraldagi PQ-120-son qaroriga ilovaning 12-bandiga muvofiq belgilangan.



3.	Buxoro viloyati	120 364	143 600	23 236	119,3	2 900	3 200	300	110,3
4.	Jizzax viloyati	126 311	146 700	20 389	116,1	2 336	2 650	314	113,4
5.	Qashqadaryo viloyati	130 409	158 300	27 891	121,3	2 730	3 151	421	115,4
6.	Navoiy viloyati	89 230	110 400	21 170	123,7	2 006	2 342	336	116,7
7.	Namangan viloyati	251 275	290 000	38 725	115,4	5 617	6 036	419	107,5
8.	Samarqand viloyati	99 417	125 700	26 283	126,4	2 576	2 790	214	108,3
9.	Surxondaryo viloyati	104 727	127 200	22 473	121,4	2 421	2 706	285	111,7
10.	Sirdaryo viloyati	24 533	40 000	15 467	163,1	866	1 050	184	121,2
11.	Toshkent viloyati	84 146	102 000	17 854	121,2	1 973	2 254	281	114,2
12.	Farg'ona viloyati	131 211	165 000	33 789	125,8	2 356	2 633	277	111,8
13.	Xorazm viloyati	95 260	114 385	19 125	120,1	2 378	2 753	375	115,8
<b>Jami:</b>		<b>1 400 124</b>	<b>1 700 285</b>	<b>300 161</b>	<b>128,6</b>	31 525	35 227	3 702	111,7

3-jadval. 2023 – 2024-yillarda asalarichilik subyektlari va mahalliy sharoitda yetishtiriladigan ona arilar sonini ko'paytirishning.

#### PROGNOZ KO'RSATKICHLARI<sup>2</sup>

T/r	Hududlar nomi	Asalarichilik subyektlari soni		Farqi, +-	O'sish, foiz	Mahalliy sharoitda yetishtiriladigan ona arilar soni		Farqi, +-	O'sish, foiz
		2023-yil	2024-yil			2023-yil	2024-yil		
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 750	2 050	300	117,1	40 414	47 801	7 387	118,3
2.	Andijon viloyati	2 850	3 180	330	111,6	158 691	171 137	12 446	107,8
3.	Buxoro viloyati	1 900	2 180	280	114,7	73 979	83 522	9 543	112,9
4.	Jizzax viloyati	2 050	2 400	350	117,1	62 589	79 623	17 034	127,2
5.	Qashqadaryo viloyati	1 900	2 210	310	116,3	99 159	117 355	18 196	118,4
6.	Navoiy viloyati	2 000	2 300	300	115,0	110 303	126 351	16 048	114,5
7.	Namangan viloyati	3 400	3 850	450	113,2	368 589	389 244	20 655	105,6
8.	Samarqand viloyati	2 650	2 920	270	110,2	56 709	70 722	14 013	124,7
9.	Surxondaryo viloyati	1 900	2 180	280	114,7	68 868	88 170	19 302	128,0
10.	Sirdaryo viloyati	620	910	290	146,8	37 699	47 155	9 456	125,1
11.	Toshkent viloyati	2 100	2 380	280	113,3	116 322	131 178	14 339	112,3
12.	Farg'ona viloyati	2 730	2 990	260	109,5	228 339	256 330	27 991	112,3
13.	Xorazm viloyati	2 150	2 450	300	114,0	78 339	91 497	13 158	116,8
<b>Jami:</b>		<b>28 000</b>	<b>32 000</b>	<b>4 000</b>	<b>114,3</b>	<b>1 500 000</b>	<b>1 700 085</b>	<b>200 085</b>	<b>113,3</b>

Mazkur qarorlar hamda ushbu faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish asalarichilik xo'jaliklari rivoji uchun muayyan darajada xizmat qiladi.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha 2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan dasturni tasdiqlash to'g'risida" 2022-yil 8-fevraldagi PQ-120-son qaroriga ilovaning 12-bandiga muvofiq belgilangan.

**XULOSA:**

Xo'jalik operatsiyalarini hisobga olishning ishchi hisoblar rejasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda asalarichilik xo'jaligining hisob siyosatida aks ettirilishi kerak.

Asalarichilik xo'jaliklarida buxgalteriya hisobining soddalashtirilgan shakli quyidagi shakllar bo'yicha yuritilishi mumkin:

- a) buxgalteriya hisobining oddiy shakli;
- b) buxgalteriya hisobining kombinatsiyalangan shakli.

Asalarichilik xo'jaligi o'zining ishlab chiqarish va boshqaruv talablaridan kelib chiqib, ushbu Nizomda nazarda tutilgan buxgalteriya hisobi shaklini mustaqil tanlaydi.

Tanlangan buxgalteriya hisobi shaklidan qat'i nazar, hisobot davrining xo'jalik muomalalari ushbu Nizomning 2-ilovasiga muvofiq "Xo'jalik operatsiyalari jurnali"da xronologik tartibda qayd qilinadi.

Xo'jalik operatsiyalarini hisobga olish jurnali kitob shaklida yuritiladi. Unda har oyda yoki har chorakda hisobot davri uchun xo'jalik operatsiyalarini hisobga olish va ro'yxatga olish amalga oshiriladi.

Yuqorida qayd etilgan me'yoriy hujjatlar asalarichilik xo'jaliklarida buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritishning me'yoriy-huquqiy asosi hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Afanasyeva E.Yu. Asalarichilik xo'jaliklarini boshqarish tizimida ishlab chiqarish xarajatlarini tahliliy hisobga olish metodologiyasini takomillashtirish / E.Yu. Afanasyeva // Buxgalteriya hisobi va tahlili. – 2015-yil.
2. Nabiev A. *Ekonomika i organizatsiya pchelovodstva*. – T.: Uzbekistan, 1980. – 87 b.
3. Nabiev A. Rezervy i puti uvelicheniya proizvodstva produktsii pchelovodstva i snizheniya yeyo sebestoimosti v UzSSR.
4. Subaeva A.K. *Povyshenie ekonomicheskoy effektivnosti proizvodstva produktsii pchelovodstva*. – Ulyanovskaya GSXA im. P.A. Stolypina, 2012. – 19 b.
5. Qahramonov B.A., Isamuhamedov A.I., Ballasov U.Sh., Ergashev S.F., To'raev O.S. *Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida asalari oilalarini parvarishlash. O'quv qo'llanma*. – ToshDAU, 2009. – 124 b.
6. Brovarskiy V., Suyarqulov Sh. *Asalarilarni ko'paytirish va parvarishlash. Darslik*. – T.: Baktria Press, 2021. – 432 b.
7. Ergashev F., Ishturdiyev H. Kichik biznes subyektlarining innovatsion loyihalarni moliyalashtirish yo'llari. // *Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot*, 2024, 2(9).
8. G'aybullaev R.M., Ishturdiyev H. Xo'jalik yuritish subyektlarida moliyaviy natijalar hisobi va auditini takomillashtirish. // *World of Science*, 2023, 6(4), 345–351.
9. Abdigapparovich I.H., Abdigapparovich I.H. Mamlakatimizda xalqaro standartlar asosida moliyaviy hisobotlarni tuzish tartibi. // *Journal of Innovations in Scientific and Educational Research*, 2024, 7(3), 189–196.
10. Xaitovich Y.S., Abdugapparovich I.K. Fermer xo'jaliklarida buxgalteriya hisobini takomillashtirish. // *American Journal of Business Management*, 2024, 2(3), 36–44.
11. Abdigapparovich I.X. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlov va sotish xizmatlarini boshqarish. // *Journal of Innovations in Scientific and Educational Research*, 2024, 7(2), 148–157.
- 12.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

### 2025. aprel. maxsus son / № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>